

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**"O'ZBEKISTON ETNOLOGIYASI: AN'ANALAR VA
INNOVATSIYALAR"
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**



Toshkent 2022 yil

Tahrir hay'ati:

1. t.f.f.d. (PhD). A.D. Bababekov
2. t.f.d (DSc).B.M. Ubaydullayeva
3. t.f.n, katta ilmiy xodim A.R. Qayumov
4. t.f.n, katta ilmiy xodim I.M. Xo'jaxonov
5. t.f.f.d. (PhD) N.N. Narziyev
6. t.f.f.d. (PhD). S.M. Anarkulov
7. Sh.M. Abdusatorov
8. T.G'. Babarahimov
9. R.H. Abduzohirov
10. K.R. Abduraxmonova

Taqrizchilar:

1. t.f.d. prof. A.A.Ashirov
2. t.f.d. S. T. Davlatova

Mualliflar keltirilgan statistik va boshqa ma'lumotlar uchun mas'uldirlar. Mazkur to'plam Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti Kengashining 05.2022 yildagi 3–sonli majlisi qarori va tarix fakulteti "Antropologiya va etnologiya" kafedrasining 26.05.2022 yildagi 19–sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy
universiteti
2022 yil

boshladi, ularning faoliyati juda qisqa vaqt ichida to‘xtab qoldi¹. XII asrda “g‘ayri shar’iy ilmlar”ni o‘rganish butunlay cheklanib qolgan bo‘lsa, endilikda “shariat ilmlari” ta’lim sohasidan butunlay chetlashtirildi. Madrasa binolari ijara olingan yotoqxonalarga aylantirildi, ba’zilarida davlat ma’muriy idoralari joylashgan, ba’zilarida esa turli maishiy xizmat binolari va omborlar o‘rnida foydalanilgan. Ayrimlari butunlay buzib tashlangan.

Uning har bir asari muayyan ilmiy-tarixiy qadriyatga ega bo‘lib, uni o‘rganish orqali hali yoritilmagan ko‘plab ma’lumotlarni bilish, tarixning o‘qilmagan qirralarini yoritish mumkin.

MUHAMMAD MUNSHIY VA UNING “TARIXI MUQIMXONIY” ASARI HAQIDA

D.M.Jamolova

T.f.f.d. dotsent, Buxoro davlat universiteti

Sh.Safoyeva

Buxoro davlat universiteti magistranti

Yozma manbalarni o‘rganish va ularni tadqiq qilish tarixchilarning eng muhim va asosiy vazifalaridan biridir. Chunki ularda xalqlarning tarixiy o’tmishiga oid qimmatli ma’lumotlar bor. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi yillarda xalqimiz boy tarixiy o’tmishini manbalarga tayangan holda chuqur va har tomonlama o‘rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O’tmish tariximizning nihoyatda boyligi bu kabi faoliyatimizning yanada kuchayishiga turki desak xato bo’lmaydi. Mamlakatimiz prezidenti SH.M.Mirziyoyevning qator nutq va chiqishlari, jumladan 2018-yil 15-iyun kuni O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi quriladigan hududga tashrif buyurib uning poydevoriga tamal toshi qo‘yilganda so‘zlagan nutqida ham “bizning mamlakatimizdek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q, bu merosni chuqur o‘rganishimiz,xalqimizga,dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”ligi alohida takidlangan edi.

XVII-XVIII asr birinchi yarmida Buxoro tarixiga doir qator asarlar yaratildi. Tarixchi va geograf olim Mahmud ibn Valining¹ Oliyjanob insonlar jasorati xususida sirlar dengizi¹ asarida Movarounnahr va Xuroson tarixishaharlar, okean va dengizlar, hayvonot olami haqida qimmatli ma’lumotlar bayon qilinadi. U “Muhabbatnama”, “Axloq husnlari” risolalari hamda 50 ming baytdan iborat katta devon muallifidir.

Tarixnavislikda Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asari ayniqsa ahamiyatga ega. Muhammad Yusuf Munshiy ibn Xo’ja Baqo – balxlik tarixchi olim, ashtarxoniyalar davrida ijod qilgan. Subxonqulixon (1680-1702), shuningdek Muhammad Muqimxon saroylarida munshiy bo‘lib xizmat qilgan. Munshiy yoki munshi (arabcha-kotib, ijodkor) - O‘rta Osiyo xonliklari davrida xonlar yoki ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi, yozuv- chizuv ishlarini olib borgan shaxs. Munshiy lavozimiga odatda, ma’lumotli ,chiroyli husnixatga

¹ Masaliyeva O. Sadri Ziyo asarlarida Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy masalalarining yoritilishi. /Ijtimoiy fikr. № 2.2013. –B. 90-95.

ega bo'lgan kishilargina olingan. Munshiylar olim va fozil kishilar bo'lganligi uchun oddiy kotiblardan farq qilgan. Ular zimmasiga xon va amirlarning maktub va farmonlarini yozish yuklatilgan Tarixiy asarlarning aksariyati ana shu munshiylar qalamiga mansub. Munshiy lavozimida bo'lgan kishilar munshiy so'zini taxallus sifatida o'z nomlariga qo'shib aytishgan. (masalan Iskandar Munshiy, Mirza Muhammad Sodiq Munshiy va boshqalar). Tarixi Muqimxoniy tarixshunoslikda XVI asr oxiri –XVII asr boshlaridagi O'rta Osiyo tarixini yoritishdagi eng muhim ma'lumotlarni beruvchi asar hisoblanadi. U Muhammad Muqimxonga bag'ishlangan. Tarixi Muqimxoniy asarida Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi. Bu asar muqadimma va uch bobdan iborat bo'lib:

Birinchi bobda shayboniylar davrida Mavarounnahrning umumiyligi ahvoli tasvirlanadi. Ikkinci, uchinchi boblarda Buxoro xonligi va Balxning Hindiston, Eron, Turkiya va Qashqar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlar, Buxoro va Balx o'rtasidagi (1702-1704) yillardagi qurolli kurash xususida so'z boradi. Asarda sufiylik tariqatlarining rahbarlari, nufuzli eshonlar, hukmdorlar, Balx hokimi Solih Xo'ja, Mahmudbiy otaliq, Badaxshon hukmdori Miryorbek, xattotlar, shoirlar, shuningdek, Qunduz, Termiz (Qo'ng'iroq), Balx (Qurama), Lag'mon (Olchin)da yashovchi o'zbek qavmlari hamda saroy mansablari va harbiy unvonlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Asarning ikkinchi qismi noma'lum sabablarga ko'ra yozilmay qolgan. Ashtarxoniyalar tarixini o'rganishda muhim manba sanalgan bu asar Ubaydullanova va Abulfayzxon tarixi asarlarining mantiqiy davomi hisoblanadi. XIX asrning 20-yillarida Rossiya orqali Yevropaga tarqaldi.

Asardan parchalar 1824-yilda fransuz tilida bosildi. To'la ravishda eski o'zbek tiliga tarjima qilinib, Semyonov tomonidan rus tilida chop etilgan. Muhammad Yusuf so'zlariga ko'ra, u Hindistonda diplomatik faoliyat olib borgan. U xonlarning zo'ravonlik siyosatini, xalqning hukmdorlarga qarshi olib borgan ozodlik urushlarini tasvirlar ekan, turli xil vaxshiyliklarni qoralagan, Balx hokimining buyrug'i bilan unga bo'ysunmagan odamlar qaynab turgan suvga tashlanganligi yoki katta temir dastgohlarda osilganligini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Hukmron sulola a'zolari o'rtasidagi adovat va kurash ko'pincha bolalarning otalariga, aka-ukalarning bir biriga nisbatan vaxshiyliklari va axloqsiz xatti-harakatlari muallif tomonidan aytib o'tiladi. Boshqa tomonidan Muhammad Yusufdan biz o'zbek qabilalarining ko'chirilishi va ashtarxoniyalar harbiy ma'muriy siyosati haqida aniq ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

Bundan tashqari asarda XVII asrda o'zbek qabilalarining joylashuvi, amaldorlarning ismlari haqida gapirilganda ular har doim o'zlariga tegishli bo'lgan qabila nomi bilan berilgan. Bularning barchasi ya'ni o'zbek qabilalarining joylashuvi va ko'chishini tasvirlovchi voqealar O'rta Osiyoning XVII asrdagi tarixiy etnografik xaritasini tuzishda katta yordam bo'ladi. Muhammad Yusuf XVII asrda yashagan nufuzli eshonlarni, darvesh buyruqboshilarni, tojsiz xonlarni tilga oladi. Faqat shu asarda biz mashxur xattotlar va o'sha davrning taniqli shoirlari, shuningdek Markaziy Osiyo

adabiyoti tarixi arxitektura yodgorliklari, badiiy qo'lyozmalarni bezash sirlari haqida ma'lumot topamiz. Bundan tashqari qaysi jamoat tashkilotlari kim tomonidan qurilganligi, ta'mirlanganligi yoki qayta qurilganligi va boshqa ma'lumotlarni ham uchratamiz. Kitobning turli joylarida qo'shni davlatlar Eron,Hindiston bilan siyosiy, madaniy va savdo aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar,o'sha paytdagi saroy hayotining aniq tafsilotlari, ba'zida turli tarixiy voqealarining qiziqarli tasvirlari bir necha so'z bilan yoritib berilgan.Muhammad Yusuf Ashtarkoniylar mulki haqida: Hududiy jihatidan ular avvalgi Temuriylar davlatinining muhim qismini o'z ichiga olgan,davlat poytaxti Buxoro edi. Janubi –g'arbda joylashgan bu davlat tarkibiga Qunduz va Juzgun (Fayzabalo) tumanlari kiritilgan. Shibirg'on va Afg'oniston shimalidagi hududlar hozirgi Afg'onistonning Qandaxor viloyatini tashkil etgan. Savdo munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan xonlik poytaxti Buxoroda hind savdogarlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Muallif Imomqulixon haqida yozar ekan, uning davrida Buxoroda hindlarning maxsus mahallalari bo'lganligini aytadi. Hunarmandlar odatdagidek, gildiyalarga birlashadilar. O'rta Osiyoda gildiyalar "takiya" atamasi bilan belgilanadi. Bu so'z arabcha so'z bo'lib, Eron va g'arbiy musulmonlarda yotoqxona, monastr ma'nosini anglatadi. O'rta Osiyodagi gildiyalar, ularning tashkiloti, nizomi haqida gapirganda bumosalani o'rganuvchilar aslida bunday tashkilotlar hech narsaga ega bo'lmaganligini aytishadi. Yana bir narsa agarda ovchilar, tilanchilar, dehqonlar gildiyalari haqida aytilsa, "takya" so'zi keng ma'noda savdo va hunarmandchilik birlashmasi ma'nosini bildiradi. Aholining asosiy qismini dehqon va chorvadorlar tashkil etadi. Muallif bu haqida to'xtalar ekan: birinchisi dalalarga ishlov beradi, sug'orish tarmoqlarini saqlab qoladi va kengaytiradi. Soliq yuklarining barcha og'irliliklarini o'z zimmasiga oladi, ularning ahvoli nihoyatda og'ir edi,-deydi.

Ikkinchisi asosan ko'chmanchilar bo'lib Amudaryo yo'nalishidagi boy yaylovlardan foydalangan.Bu yerda yashagan mo'g'ul qabilalarining turmush tarzi bir biriga yaqin bo'lgan.Eshonlarning mamlakatdagi ta'siri baland edi. Ular xalq ommasini o'z qo'lida mahkam ushlab turishar, ularning kichik xonlar, sultonlarning kuchidan ham ko'proq edi. Muhammat Yusuf o'z asarida bunday eshonlarning sulolalarini nasl – nasab daraxti sifatida ko'rsatadi. U yoki bu xon, sulton ularga qarshi gapirganida, eshonlar o'zlarining "itoatkor podasini" ularga qarshi jalb etardi. Bunday hollarda hatto davlat rahbarini qo'llab-quvvatlaganlar ham mag'libiyatga uchragan. Davlat teppasida oliy hukmdor xon turgan. Asarda keltirilishicha, ashtarkoniylarning eng boyalarida 600 tuya, 8ming ot, frank baxmali bilan to'ldirilgan 400 ta sandiq bo'lgan. Barcha hokimlar Buxoro xoni xazinasiga o'z tumanlaridan olinadigan soliqlarning ma'lum miqdorini berib borishgan. Davlat qat'iy budgetsiz,tushum va xarajatlarsiz yashagan. Aniq fuqarolik va harbiy ishlar bo'lmaaganligi, amaldorlarning har biri iloji boricha daromadli bo'lishga intilganligi uchun shariat soliqlaridan tashqari boshqa ko'plab turdag'i yig'imlar ularning foydasiga yig'ilgan. Xiroj solig'i esa

o'zboshimchalik bilan yig'im – terim paytida olingan. Har bir soliq yig'uvchlari va ularning yordamchilari o'zlarini xafa qilmaslik uchun harakat qilishardi.

Viloyat hukmdorlari Buxoro xonlari bilan qarindosh bo'lsalarda tez-tez unga qarshi kurash olib borardi. Imomqulixon amakisi Vali Muhammad bilan Movarouunahr uchun kurash olib boradi. Bu vaqtida Maxdumi A'zamning nabirasi eshon Xoja Hoshimiyl Imomqulixondan yordam so'rab murojaat qiladi. Vali Muhammad mag'lubiyatga uchrab asir olinadi va eshonlarning buyrug'i bilan o'ldiriladi. Muhammad Yusuf tilga olgan Badaxshon hukmdori Yorbekxon Samarqand darveshlariga tegishli edi. XVIasr oxirida Farg'ona viloyatida hokimiyat bir muncha vaqt chodak xo'jalari qo'lida edi. Mamlakatning ijtimoiy hayotida muhim mansablaridan yana biri ruhoniylar (ulamolar), shayx ul-islom, qozi, rais, mudarris va muftiylardir. Shu davrga oid manbalardan biri Mulla Sharif va Mulla Ibodullaning "Tarixi Amiri Haydar" asari bizgacha qisqartirilgan shaklda yetib kelgan. Bu asarda Amir Haydar (1800-1826)va uning hukmronlik yillari bilan bog'liq voqealar tafsiloti keltirilgan.

Bu asarning qo'lyozmasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Har ikkala asarda ham XVII asrdan to XIX asrgacha bo'lgan voqealar muhim xronologik ketma-ketlikda berilgan. Tarixi Muqimxoniy asarining ruscha tarjimasni O'rta Osiyo davlat universiteti kutubxonasida 0961 raqam ostida saqlanadi. Asarda ta'kidlanishicha, ashtarkoniylar davrida qullar juda qiyin ahvolda edilar, ular hech qanday huquqqa ega bo'limganlar va xo'jayinlariga to'liq qaram bo'lgan. Qullarning safi asosan mahbus forslar hisobidan to'ldirilgan. Muhammad Yusufning guvohlik berishicha, "Balx viloyatida qullar qo'yalar kabi haydab yurilgan, ko'pchiligi Samarqand va Toshkent bozorlarida sotilgan." Qullar orasida Qirg'iziston, Qozog'iston va mo'g'ilistonliklarni ham ko'rish mungkin. XVI-XVIII asrlar bizning tarixiy adabiyotlarda juda kam yoritilgan. Munshiy asari esa tarixiy asarlar yaratilishi uchun boshlang'ich nuqta vazifasini bajargan. Unda Chingizzon davridan to Ashtarkoniylargacha bo'lgan tarix bayon etilgan. Yuqorida aytganimizdek bu asar davomi sifatida Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanova" va Abdurahmon Tolening "Abulfayzxon tarixi "asarlarini ko'rish mungkin. Har ikkala asar Ukraina Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bu davrga oig bevosita to'rtinchini tarixiy asar Muhammad Vafo Karnegining "Tuhfatul xoniy "asari bo'lib, unda Buxoroning ichki va tashqi siyosati bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Muhammad Yusuf ma'lumotlariga ko'ra, "Balxda Subxonqulixonning 200 ming qo'shini borligini aytadi. Askarlarning asosiy qismini o'zbeklar, qoraqalpoqlar tashkil etib, harbiy hukmdorlar yoki amirlarning ko'pchiligi o'zbeklardan bo'lgan. Ashtarkoniylardan bo'lgan Nodir Muhammadxonning zamondoshi tarixchi Mahmud ibn Vali xonning topshirig'i bilan "Sirlar dengizi" asarini yozganligini aytgandek.

Asarda ta'kidlanishicha xonning chap tomonida (chap tomon eng sharaflı deb hisoblanar edi) naqiblar turgan, ularning ortidan o'zbek qabilalarining oqsoqollari turgan (Muhammad Yusuf ular bilan tez-tez suhbatlashib turardi), ularidan keyin nayman, qo'ng'iroq qabila oqsoqollari,

Юсупова Г.	Фарғона иқтисодий районида енгил саноат: 194-199 ривож ва муаммолари (XX аср 50-70 йиллар)	
Рахматова Н.М.	Мустақиллик йиллари Навоий вилоятида 200-203 касаначилик ва қўл меҳнати	
Islomov D.	Abdurauf Fitrat va uning “Rahbari najot” asari 204-207 haqida	
Beshimov M.	Mang’itlar sulolası davrida qurilgan tarixiy 208-209 yodgorliklar	
Абдуллаева Н.А.	Садриддин Айнийнинг “Эсдаликлар” асари 210-212 мухим тарихий манба сифатида	
Samadova H.M.	Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoning ilmiy 213-216 merosi	
Jamolova D.M.	Muhammad Munshiy va uning “tarixi 217-220 Muqimxoniy” asari haqida	
Safoyeva Sh.	Toshkent shahar markaziy davlat arxivisi – 221-223 shahar tarixini o‘rganishda asosiy manba sifatida	
Raximova S.G`.	Elboyev F. X.	Quruqsoy qishlog`ining tarixi va 224-227 etnografiyasiga doir ba’zi ma’lumotlar
Bo`stonova Z.	Mirzo Salimbekning “Kashko`li Salimi” 228-230 asarida Buxoro elchisining donoligi haqida	
Qilichev O.A., Ismoilov Sh.I.	Buxoro o`lkashunoslik muzeyi – rivojlanish 231-232 bosqichida	
Iumaiyev R.G`., Jo`rayev I.I.	Buxoro davlatchiligi tarixida mang`itlar 233-236 sulolasining hokimyat tepasiga kelishi.	
Jumayev G`I.	G‘iyosiddin Xondamirning «habib us-siyar fi axbori afrodi al-bashar» asarining tarixshunosligi	
Kalbayeva U. J	Amudaryo bo‘limining tashkil topishi va uning 240-241 ma’muriy-hududiy tuzilishi	
Nafasofa D.N.	XIX asrning ikki yarmi – XX asr boshlarida 242-244 Sirdaryo viloyatining hududi va iqtisodiy hayotiga oid ba’zi mulohazalar	
Raxmanova M.Sh	Xiva xonligida qo‘ng’irotlar sulolası davri 245-247 manbashunosligiga doir ayrim mulohazalar	
Temirova G.	Buxoro amirligining tugatilishi - sovet 248-249 hokimiyati mustamlakachlik siyosati.	
Jonizoqov F.	XX asrda Koreyada arxiv ishi faoliyatiga doir 250-252	

	ba'zi mulohazalar (islohotlar, tizimlashtirish va taraqqiyot jarayonlari)	
Азизов Б.Б.	Россия империяси хукуматининг 253-254	
	Нуркистонда миллий маорифни чеклаш сиёсати	
Ergashev H. Yu.	Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug'bek nomidagi 255-259	
	O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetining rivojlanishi	
Gadayeva Z. A.	Millatparvar jadidlar faoliyatida ma`naviyat va 260-262	
	madaniyat masalalari	
Husniddin A. T.	Shayboniy hukmdorlarning taxtga chiqish 263-268	
	an'analari	
Замонавий этнологик тадқиқотлар ёшлар нигоҳида		
Нарзиев Н.Н.	Мулоқот маданиятида атрибутлар доир 269-274	
	баъзи мулоҳазалар (ўзбек халқи мисолида)	
Норбўтаев П.П.	Этнология фанида фольклор 275-280	
Намозова С.Б.	материалларни ўрганишнинг тадқиқот методлари	
Аскarov М.М.	Идентиклик тадқиқоти нега зарур? 281-285	
Анаркулов С.М.	Шаҳарсозликдан мафкуравий 286-290	
	“Бунёдкорлик” сари...	
Абдусаторов Ш.М.	Аҳоли хўжалик машғулотларининг 291-294	
	таомлардаги акси (Фарғона водийси дала материаллари асосида)	
Abduzohirov R.H.	Migratsiya nazariyalariga oid ayrim 295-299	
	mulohazalar	
Бабарахимов Т.	Минтақавий ўзликни англаш масаласи 300-303	
	доир баъзи қарашлар тахлили	
Азизов А.	Фарғона водийси аҳолиси дунёқарашида 304-310	
	уй ҳайвонлари билан боғлиқ тасаввурлар (кўй мисолида).	
Хайдаров А.	XX аср бошларида Фарғона вилояти 311-313	
	аҳолисининг диний таркибидағи ўзгаришлар	
Abduraxmonova K.R.	Tibbiyot tizimlari taraqqiyotiga oid ayrim 314-319	
	mulohazalar	
Хомиджонова М.А.	Антрапологическая школа л.в. ошанина 320-323	

Abdivohidova G.R.	Mustaqillikning dastlabki yillarida xotin-qizlar bandligi va huquqlarini ta'minlash masalasi tahlili	324-327
Ulugbekov O.	The prosperity of visual anthropology in Uzbekistan as a new science way	328-329
Ergasheva B.G`	Zamonaviy o`zbeklarning reklamaga bo`lgan munosabati	330-335
Haqberdiyeva F.	O`zbekistonda nonning o`ziga xos turlari	336-338
Islomov D.	“Abdullahoma” asari – shayboniyalar davri tarixini yorituvchi muhim tarixiy manba	339-342
Komilova Sh.	Ayollar migratsiyasining asosiy sabablari va xususiyatlari	343-347
Nafasova H.	Bolalar an'anaviy mavsumiy o'yinlari haqida	348-354
Sirliboyeva G.	Covid-19 davrida oilaviy munosabatlar.	355-357
Solijonov O.	“Darveshona” marosimining ayrim jihatlari xususida	358-360
Toshtemirov B.Sh.	Etnik nizolar va ularning sabablariga doir mulohazalar	361-363
Ойдинова И. Н.	Иккинчи жаҳон уруши йилларида ўзбекистонликларнинг меҳнат фронтига сафарбар қилиниши муаммосининг ўрганилишига доир	364-366
Алиназаров Д.В.	Современная этнология в Узбекистане: основные направления исследований	367-369
Mustafoqulov Sh.M.	Jahon xalqlari lingvistik klassifikatsiyasiga doir ayrim mulohazalar.	370-371
Abdimuradov J. Z.	Qashqadaryo vohasida tarixiy madaniy ekologik ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari	372-374
Isaqov R. O`.	Qoraqalpoq xalq milliy hunarmandchiligidagi mahsulotlarini tayyorlash bilan bog'liq urfodat va marosimlar.	375-380
Tursunov N.	Mahalliy boshqaruv tarixidan	381-384
Султонов Ш.Э.	Buyuk ipak yo'lining eftaliylar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot, aholining etnik tarkibi	385-388
Юсупова X.М.	Toшкент воҳаси илк ўрта асрларда: ижтимоий-иктисодий ҳаёт ва шаҳарсозлик маданияти ривожланиш омиллари.	389-391

